

**TIMSS TAHLILLARI: O'QUVCHILARNING O'QUV FAOLIYATI
SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Narziyev Jamshed Raxmiddinovich

Oriental universiteti

“Ta’lim menejmenti” magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada TIMSS tadqiqoti tahlillariga ko‘ra umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro va milliy baholash, TIMSS, boshqaruv, o‘qituvchi, maktab.

Abstract: This article talks about the factors affecting the effectiveness of students' educational activities in secondary schools according to the analysis of the TIMSS.

Key words: International and national assessment, TIMSS, management, teacher, school.

Xalqaro yoki Milliy baholashning asosiy maqsadi ta’lim siyosatchilari va boshqaruvchilariga ma’lumotlar taqdim etishdir. Ammo, agar baholashning natijalari maktab samaradorligini oshirish va o‘qitish amaliyotini yaxshilash uchun siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda foydalanilmasa, o‘quvchilarning yutuqlarini o‘shirishini kutib bo‘lmaydi.

Xalqaro baholash natijalari Ta’lim vazirliklari, hududiy tuzilmalar va maktab o‘qituvchilarini doimiy ravishda o‘qitadigan hamda ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan o‘quv yurtlari uchun juda ko‘p ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Xalqaro baholash dasturlarida o‘quvchilarning yuqori natija ko‘rsatishi albatta, bir tomondan ularga ta’lim beruvchi o‘qituvchilarining professional tayyorgarligiga ham bog‘liqdir.

Agar o‘qituvchilarning o‘rtacha sinov bahosi ko‘tarilsa (hududning o‘rta natijasiga ko‘ra), o‘quvchilarning ham o‘rtacha sinov bahosi oshadi (Jahon banki, 2004).

Bir qator davlatlar ommaviy tarzda o‘qituvchilarni o‘qitish uchun Milliy televedeniya yoki maxsus tayyorgarlik ko‘rgan tajribali pedagoglar, pedagogik institutlarning vakillari yordamidan foydalanadilar.

Kommunikatsiya va siyosiy muammolar o‘qituvchilarning ta’lim sifatini oshirish borasidagi barcha sa’y-harakatlarini susaytirishi mumkin. Bu Argentinada yuz berdi, bu yerda pedagogik ta’lim va baholash bo‘yicha agentliklar o‘rtasida yaxshi aloqalar yo‘lga qo‘yilmagan edi (*Ferrer, 2006*).

Bir ta’lim tizimidan ikkinchisiga, maktabdan maktabga o‘zgarishi mumkin bo‘lgan baholash natijalarini boshqarishning samarali strategiyalari haqida juda kam ma’lumotlar ma’lum.

O‘qituvchilar o‘rtasida ko‘proq munozaralarga sabab bo‘luvchi ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar:

- Maktab faoliyati samaradorligi;
- O‘qituvchilar faoliyati samaradorligi;
- O‘quvchilar o‘quv faoliyatining baholash natijalari bilan bog‘liqligi;
- Har bir o‘quvchining oilaviy omillari bilan baholash natijalarining bog‘liqligi.
- Maktab va o‘qituvchilar faoliyati samaradorligi

Maktab darajasidagi samaradorlik bilan bog‘liq umumiy omillar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatining yaxshilanishiga ta’sir etuvchi maktab direktorining o‘rni va maktab madaniyatining yuksalishi muhimligini bildiradi. Maktab intizomi va axloqiy me’yorlariga rioya etish kabi sharoitlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Bir asr davomida tadqiqotchilar o'quvchining bilim olish qobiliyatlarining rivojlanishida asosiy omil oila bo'lsada, ammo unga maktab xususiyatlarining, xususan, sinfda o'qitish usullarining ta'sirini kam baholab kelgan.

NAEP dasturi uchun to'plangan va murakkab statistik tahlil usullari yordamida tahlil qilingan yaqinda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sinfda o'qitish usullari (masalan, intellektual qobiliyatning samaradorlik darajasiga e'tibor qaratish, muammoni hal qilish usullarini yangi muammolarga qo'llash va ta'limni individuallashtirish) matematika fanidan 8-sinf o'quvchilarining bilim darajasining o'sishiga kuchli ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida qayd etildi (Wenglinsky, 2002).

O'qituvchilarning faoliyati samaradorligi bilan bog'liq omillar (4-6.8 qo'shimcha material) o'qituvchilarning o'z fanlaridan bilimlari darajasini va pedagogik ko'nikmalarini aniqlaydi. Ta'lim berishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- O'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari;
- Vazifalarni bajarish uchun belgilangan vaqt;
- O'quv materiallarini tuzish;
- O'quvchilarni baholash va ular bilan qayta aloqa o'rnatish;
- Resurslarning yetarililik darajasi va har qanday sinfda bo'lishi mumkin bo'lgan o'quvchilarning o'quv jarayonidagi bilimi va tajribalaridagi o'zgarishlarni ta'minlash uchun muammolarni hal qilishning bir necha usullaridan foydalanish (Scheensens 1998; Wenglinsky 2002).

Sinfda o'quvchilarning yuqori natijalarga erishishlarini mo'ljallash, maktab darajasida yuqori ko'rsatkichlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Maktab faoliyati samaradorligi va o'qituvchilar faoliyatlari samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik sinflardagi o'qitish jarayonini muvofiqlashtirishni talab etadi. Shuning uchun, xalqaro yoki milliy baholash natijalarini muhokama qilayotganda maktab mutasaddilari barcha sinflarda, xususan quyi sinflarda baholash natijalari asosida uning o'rnini ko'rib chiqishlari lozim.

Ideal holda, o'qitish metodlarini takomillashtirish mexanizmi o'quvchilar tomonidan testlarni yechish va o'quvchilar yutuqlarini oshirish uchun o'qitish strategiyasi bog'liqligi bo'yicha maktab mutasaddilari tomonidan tayyorlangan sharhlarni o'z ichiga olishi kerak. Bu jarayonda inspektorlar, kuzatuvchilar yoki maslahatchilar tomonidan qo'llab quvvatlash juda muhim, chunki o'qituvchilar odatda o'z sinflarini bilishlari darajasida harakat qiladilar.

Xalqaro yoki Milliy baholash natijalarini muhokama qilish jarayonida maktab rahbarlari va o'qituvchilar har bir o'quvchi, oila va jamiyat uchun o'quv natijalariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishlari lozim.

Agar tahlil paytida hal qilinishi mumkin bo'lgan o'quvchilarning bilimni rivojlantirishga aloqador muammolar yuzaga kelsa, ularni sinf yoki maktab darajasida emas, balki undan yuqori darajalarda hal qilish lozim. Masalan, o'quvchilar darajasidagi ma'lumotlarga o'quvchilarni ovqatlantirish yoki oziq-ovqat defitsitligi vaqtida qo'shimcha ovqatlantirish zarurati kabi masalalar kiradi. Biroq oxirgi vaziyat, shubhasiz, tashqi yordamni talab etadi. Maktablar o'quvchilarning ota-onalari haqida aniq ma'lumot olish imkoniyatiga ega emaslar, ammo ular ota-onalarga oilada farzandlarining ta'lim jarayoniga yordam beradigan shart-sharoitlarini yaratish bo'yicha maslahat berishlari mumkin.

Xalqaro yoki Milliy baholash natijalarini ko'rib chiqishda maktab o'qituvchilari maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni qanday mustahkamlash kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Ko'p mamlakatlarda maktablar ota-onalar o'z farzandlarining o'quv faoliyatida yanada faol o'rin egallashlari uchun o'quvchilarning oilalari bilan aloqa o'rnatadilar, bu aloqani tiklash va rivojlantirish kerak. Bu borada strategiyalar doirasi juda keng:

- ota-onalarni maktabni boshqarish va himoya qilishga jalb qilish (masalan, ota-onalar va o'qituvchilar a'zo bo'lgan uyushmalarda ishtirok etish yoki maktabni boshqarish qo'mitasida qatnashish);
- maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ota-onalarning ko'magi;
- o'quv jarayoniga aloqador bo'lgan maktab siyosati va uy sharoitlarini muhokama qilish uchun maruza va mahorat darslarini o'tkazish;
- ota-onalarni (yoki katta yoshlilarni) uyda ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va suhbatlashishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatiga jalb qilish, hamda uy vazifalarni kuzatishni o'z ichiga olgan dasturni rivojlantirish (Kellaghan and others, 1993).

O'quvchilarning o'quv faoliyatiga maktabda xizmat ko'rsatadigan jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari kabi kengroq kontekstual omillar ham ta'sir etishi mumkin. Biroq, bu omillar asosan ularning nazorati ostida emas. Shunga qaramay, maktabning hududiy boshqaruv va siyosiy tashkilotlar vakilliklari bilan hamkorligini ta'minlash kerak. Mahalliy tashkilotlar maktab binolarini saqlash yoki o'quv resurslari bilan ta'minlashni o'z zimmalariga olishlari mumkin. Maktablar bolalarning bilimlarini rivojlantirish uchun qo'lidan kelganini qilayotganini jamoatchilikka yetkazish juda muhimdir. Maktab rahbarlari va o'qituvchilarning ma'lumotlarida ular o'z faoliyatlarining natijalariga ishonishlari aks etishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 20 Years of TIMSS International Trends in Mathematics and Science Achievement, Curriculum, and Instruction, Ina V.S. Mullis Michael O. Martin, Tom Loveless, Boston College, Chestnut Hill, MA (2016) <https://www.iea.nl/publications/study-reports/international-reports-iea-studies/20-years-timss>
2. TIMSS 2003 International Matematics Report / by Ina V.S.Mulis, Michael O.Martin, Eugenio J.Gonzales, Steven J.Chrostowski. Publisher: TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, 2004. https://timssandpirls.bc.edu/PDF/t03_download/T03INTLMATRPT.pdf
3. TIMSS 2007 International Matematics Report / by Michael O.Martin, Ina V.S.Mulis, Pierre Foy. Publisher: TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, 2008. https://timssandpirls.bc.edu/TIMSS2007/PDF/TIMSS2007_InternationalMathematicsReport.pdf
4. TIMSS 2011 International Matematics Report / by Ina V.S.Mulis, Michael O.Martin, Pierre Foy, Alka Arora. Publisher: TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, 2012. https://timssandpirls.bc.edu/timss2011/downloads/T11_IR_Mathematics_FullBook.pdf
5. Шляйхер, Андреас. Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? / [пер. с англ. И.С.Денисенкр, И.Ю.Облачко]; предисловие С.С.Кравцова. – Москва: Издательство «Начальное образование», 2019.-336с.(Антология образоваия). ISBN 978-92-64-300002.